

Toshkentdagi Xalqaro Vestminster Universiteti talabalarining Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud ayyomlari munosabati bilan Alisher Navoiy Davlat Adabiyot Muzeyiga amalga oshirilgan tashriflari

B A Y O N N O M A S I

2026-yil 12-fevral

TXVU

2026-yil 12-fevral kuni Toshkentdagi Xalqaro Vestminster Universiteti talabalari soʻz mulkining sultoni Alisher Navoiy hamda buyuk shoir va sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud ayyomlari munosabati bilan Alisher Navoiy Davlat Adabiyot Muzeyiga tashrif buyurdilar.

Tashrif davomida talabalar muzeyda saqlanayotgan qadimiy qoʻlyozmalar, nodir asarlar, tarixiy hujjatlar, surʼatlar hamda buyuk ajdodlarimiz hayoti va ijodiga oid eksponatlar bilan yaqindan tanishdilar. Muzey mutaxassislari tomonidan talabalarga Navoiy va Boburning boy adabiy merosi, ularning oʻzbek va jahon adabiyoti taraqqiyotidagi oʻrni haqida batafsil maʼlumotlar berildi.

Tadbir jarayonida talabalar oʻzlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar, tarixiy manbalarni bevosita koʻrish orqali oʻz bilim va tasavvurlarini yanada boyitdilar.

Taʼkidlash joizki, mazkur tashrif yoshlar qalbida katta taassurot qoldirdi. Talabalar bunday maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlar ularning tarixiy xotira va milliy qadriyatlarga boʻlgan hurmatini yanada mustahkamlashini taʼkidladilar.

Yigʻilish yakunida kelgusida shunday tashriflar sonini oshirish hamda boshqa madaniy-maʼrifiy maskanlarga sayohatlar uyushtirish rejalashtirildi.









Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha birinchi prorektori:

N.Kadirov

Universitet katta tyutori:

F.Ismagilova